

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TALIM BERISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV.

Ermatova Mexriniso Bekmuradovna
Denov tadbirkorlik va Pedagogika insitituti
Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
Shaydullayeva Dilinur, Muradullayeva Maxfuza
Denov tadbirkorlik va Pedagogika insitituti talabasi
ermativamehriniso@gmail.com

*Bolalardagi shumtakaliklarni yo'q qilsangiz, hech
qachon donishmandlarni yarata olmaysiz-
g'arb olimi Jan Jak Russo.*

Annototsiya: Kompetensiyaviy yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetenlilikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta'limining asosiy sharti hisoblanadi. Bu talab o'qituvchi-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita daxldordir. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda kompetensiyaviy yondoshuvni rivojlantirish yo'llari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Kompetensiyaviy yondashuv,

Kirish:

Kompetensiya – ma'lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan mutaxassisning ta'limiy tayyorgarligiga qo'yilgan talabdir. U davlat ixtiyorida bo'lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo'lib, u tarbiyalanuvchining muayyan sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan ta'limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladi.

Hammamizga ma'lumki, Kompetensiya (lotincha “competo” so'zidan olingan bo'lib, “erishaman, muvofiqman, mos kelaman” ma'nolarini beradi) — kishi egallagan muayyan bilim, ko'nikma, malakalar majmuasini anglatadi.

Kompetensiya tushunchasi nisbatan yaqindan boshlab, 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlaridan keng qo'llanila boshlandi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim – bolalarning [egallangan bilim](#), ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashu vga asoslangan ta'lim bolalarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bundan tashqari, ta'limda har bir ta'limiy faoliyatni o'zlashtirish jarayonida bolalarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuvda o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda alohida yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, "Men" obrazini yaratish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni nazarda tutadi. Boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq subyekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi.

Kompetensiya bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat'iy nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kompetensiya – bu ko'p yo'nalishli tushuncha bo'lib, u maktabgacha ta'lim bo'g'inida bolaning muvaffaqiyatli o'qishi va rivojlanishini, shuningdek, uning boshlang'ich maktabning 1-sinfida o'qishi davomidagi muvaffaqiyatini shartlaydigan bilim, mahorat, ko'nikma, qadriyatli yo'l-yo'riqlar va xulq-atvor ko'nikmalarining jamlanmasini namoyon qiladi.

Kompetensiyalarning tarkibiy elementlari:

Bilim – bu kishida mavjud bo'lgan axborotlar hajmidir. Pedagogikada bilim – bu borliqni o'rganish faoliyati jarayonining natijasi bo'lib, u mos holdagi inson ongida tasavur, tushuncha, fikr shakllarida ifodalanadi.

Qadriyatlar – bu insonning hayotda erishishi lozim bo'lgan, xohlayotgan maqsadlarga umumiy ishonchidir. Ular harakatlarni motivatsiyalaydi, shuningdek, qanday qilib harakat qilish lozimligi to'g'risidagi masalani hal qilishda ko'rsatmali tamoyillar bo'lib ham xizmat qiladi. Qadriyatlar ham o'zining, ham boshqalarning harakatlarini baholash uchun, fikrlar, pozitsiyalar va xulq-atvorni asoslash uchun, muqobil variantlarda qaror qabul qilish uchun, boshqa kishilarning xulq-atvorini rejalashtirish va ularga ta'sir o'tkazishga intilishda mezonlarni taqdim etadi.

Pedagogikada:

Mahorat – bu bilimlarga asoslangan, harakatlarning yangi usullarini o'zlashtirishdagi oraliq bosqichdir.

Ko'nikmalar – bu ongli harakatlarni amalga oshirish jarayonida hosil qilinadigan avtomatlashtirilgan komponentlardir.

Amaliy ko'nikma – bu aniq masalani hal qilishda yoki maqsadga erishish uchun uni qo'llay olish qobiliyatidir.

Pedagoglar umumiy muhim kompetensiyalar haqida nimalarni bilishlari kerak:

- MK bilim, ko'nikmalar, munosabatlar va qadriyatli yo'l-yo'riqlarni qamrab oladi;
- MK pedagoglardan va bolalarga ta'lim beruvchilardan bolalarning tayyorligini, ularning xohish-istaklarini, shuningdek, o'qishga imkoniyatlari va qobiliyatlarini ko'rib chiqish zaruratini talab qiladi;
- MK hamkorlikda, birgalikda "ishlaydi" yoki "harakat qiladi" va birlariga ta'sir ko'rsatadi;
- MK bolalarni qachonlardir kelajakda dunyo ishlarida ishtirok etishga tayyorlashning o'rniga hozirda va shu yerda dunyo ishlarida ishtirok etishga imkoniyatlari va qobiliyatlarini kuchaytiradi;
- MK pedagoglardan nafaqat bolalar o'qiyotganliklari va rivojlanayotganliklarini his qilishni, balki ular qanday o'qiyotganliklarini va kelajakda o'z o'qish faoliyatlarini davom ettirishga qanchalik qobil ekanliklarini ham his qilishni talab qiladi;
- MK bu nafaqat asosiy ko'nikma va mahoratning yangicha nomidir. Ular shu jumladan, bu ko'nikmalar bilim, munosabat, qadriyatlar bilan qanday nisbatlanishini ham qamrab oladi va bu ko'nikmalar turli-tuman vaziyatlarda boshqalar bilan o'zaro harakatlarda qanday qilib foydalanilishini ham bildiradi;
- MK nafaqat kichik yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan, ularni barcha (rahbarlar, ota-onalar, pedagoglar, mahalliy hamjamiyat a'zolari) ham egallashlari lozimdir;
- MK kichik yoshdagi bolalarga o'ziga ishonch orttirishga, butun hayot davomida faol jalb qilinishga, o'qib-o'rganishga yordam beradi;
- MK rivojlanishning har bir sohasidagi o'qish jarayoniga biriktirilishi zarurdir;
- MK samarali pedagogika yordamida rivojlanadi.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarga kompetensiyaviy yondashuv - bu bolalarning o'z hayotiy tajribalarini boyitish va ularni mustaqil fikrlashga, masalalarni hal qilishga, muloqot qilishga va ijodiy yondashuvlarni qo'llashga yo'naltiradigan pedagogik yondashuvdir. Bu yondashuvning maqsadi bolalarning shaxsiy, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Kompetensiyaviy yondashuv orqali maktabgacha yoshdagi bolalar jamiyatning faol, ijodiy va ijtimoiy moslashgan a'zolari bo'lib shakllanadilar. Bu esa ularning kelajakdagi maktab hayotiga muvaffaqiyatli moslashishlariga zamin yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti" 802-sonli qarori.

2. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi(takomillashtirilgan ikkinchi nashr)Toshkent-2022
3. “Oilaviy nodavlat hamda davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini
4. tashkil etish” qisqa muddatli o‘quv kursi. **Toshkent-2021**